

3-sinf savollari

- 1 (3.1 ball) Rasmga ko'ra nokning qiymatini toping.

$$\begin{array}{r}
 \text{apple} = 23 \quad \text{banana} = 15 \\
 \text{apple} - \text{banana} = \text{cherries} \\
 \text{pear} + \text{cherries} = 17
 \end{array}$$

- A) 9    B) 5    C) 14    D) 18

- 2 (3.1 ball) Azizada 35 ta konfet bor edi. U dastlab, 7 ta konfetni opasiga berdi. Keyin esa o'zi va ukasi bir xil miqdorda konfet yeyishdi. Shundan so'ng Azizada 12 ta konfet qolgan bo'lsa, nechta konfetni uning o'zi yegan?

- A) 16    B) 8    C) 20    D) 28

- 3 (3.1 ball) Nodirda quyida berilgan ko'rinishdagi 2 ta qog'oz bo'laklari bor. U berilgan shakllarning nechtasini bu ikki qog'oz bo'laklarini birlashtirish orqali hosil qilishi mumkin? Shakllarni aylantirish mumkin, lekin orqa tomoniga o'girish mumkin emas.



- A) 1    B) 2    C) 3    D) 4


- 4 (3.1 ball) Taomxonada 5 ta dumaloq shaklidagi va 6 ta kvadrat shaklidagi stol bor. Har bir dumaloq shakldagi stol atrofiga 6 ta kishi, har bir kvadrat shakldagi stol atrofiga esa 4 kishi o'tirishi mumkin. Taomxona bir vaqtning o'zida eng ko'pi bilan necha kishiga xizmat ko'rsata oladi?

- A) 110    B) 56    C) 54    D) 60

- 5 (3.1 ball) Sotuvchi 15 ta koptokni firmadan 60\$ ga sotib oladi. Keyin esa do'konida har bir koptokning narxini 9\$ qilib belgilaydi. Sotuvchi bitta koptokdan kamida 2\$ foyda qilishni xohlaydi. U mijozga bitta koptok uchun eng ko'pi bilan qancha chegirma berishi mumkin?

- A) 2\$    B) 1\$    C) 4\$    D) 3\$


6 (4.2 ball) Quyidagi jismlarning qaysi biri boshqalari bilan bir xil emas?



7 (4.2 ball) Yarim kilogramm mol go'shtining narxi 2 kilogramm tovuq go'shtining narxiga teng. Agar 1 kilogramm mol go'shti va 1 kilogramm tovuq go'shtining birgalikdagi narxi 15\$ bo'lsa, 1 kilogramm tovuq go'shtining narxini toping.


A) 3\$ B) 6\$ C) 12\$ D) 5\$

8 (4.2 ball) Rasmdagi shaklning berilgan chiziqqa nisbatan simmetrigini toping.



9 (4.2 ball) Quyida berilgan doiralar ichiga natural sonlar yozilgan. Shakldagi ba'zi doiralar yo'nalishlar bilan bog'langan. Bunda, ixtiyoriy qizil yo'nalishning boshida turgan doiradagi son shu yo'nalishning oxirida turgan doiradagi sondan 2 marta kichik. Ixtiyoriy yashil yo'nalishning boshida turgan doiradagi son esa shu yo'nalishning oxirida turgan doiradagi sondan 1 ga kichik. Ko'k rangli doirada qanday son bo'lishi kerak?


**Izoh:** Rasmda berilgan qora rangli yo'nalishning A uchi uning boshi, B uchi esa uning oxiri bo'ladi



A) 92 B) 47 C) 98 D) 53


### 3-sinf savollari

- 10 (4.2 ball) Kvadrat shaklidagi qog'oz quyida berilgan rasmdagidek 2 marta teng buklandi. Shundan so'ng bu qog'oz 1, 2, 3, 4 chiziqlarning qaysi biri bo'ylab qirgilsa aynan 5 ta bo'lakka bo'linadi?




- A) 1    B) 2    C) 3    D) 4

- 11 (5.3 ball) Quyida berilgan kesmalarga 1, 3, 5, 9, 12, 14, 16 sonlari bittadan qilib shunday joylashtirilganki, har bir doiralarning ichidagi sonlar yig'indisi 24 ga teng bo'ldi.  $x \cdot y$  ning qiymatini toping.



- A) 45    B) 27    C) 36    D) 15


- 12 (5.3 ball) Quyidagi rasmdagi natural sonlar ma'lum qonuniyat asosida yozib chiqilmoqda. 15-qatoridagi sonlar yig'indisini toping.



- ...                      ...                      ...  
 A) 197    B) 212    C) 182    D) 184

- 13 (5.3 ball) Abbos bir kunda ijtimoiy tarmoqlaridan o'rtacha 60 ta video ko'radi. Ko'radigan videolarining barchasi 2 daqiqadan iborat. Shuningdek, bu videolarning  $\frac{4}{5}$  qismi Abbos uchun foydasiz bo'lgan videolarni tashkil etadi. Abbos 1 yil davomida ijtimoiy tarmoqlarda foydasiz videolarga sarflaydigan vaqti hammasi bo'lib necha kunga teng bo'ladi (1 yilni 360 kun deb hisoblang)?
- A) 12    B) 16    C) 20    D) 24

- 14** (5.3 ball) Sardor ukasi Erkin bilan basketbol o'yiniga bordi. Ular o'zlari yoqtirgan "Yosh iqtidor" jamoasiga muxlislik qilishdi. Sardor jamoa necha ball to'plaganini, Erkin esa ular necha marta savatga to'p tashlaganini hisoblab bordi. O'yin yakunida Sardorda 52, Erkinda esa 21 hosil bo'ldi. Ma'lumki basketbol o'yinida agar siz savatga to'pni tashlasangiz bu uchun 1 ball yoki 2 ball yoki 3 ballni qo'lga kiritishingiz mumkin. Agar o'sha o'yindagi "Yosh iqtidor" jamosining 3 ballik to'p tashlashlar soni 11 ta bo'lgan bo'lsa, ular necha marta 2 ballik to'p tashlagan?  
A) 9    B) 5    C) 10    D) 7
- 15** (5.3 ball) Yuzlari 75 va 150 ga teng bo'lgan ikkita to'g'ri to'rtburchaklarni birlashtirib kvadrat hosil qilish mumkin. Bunda to'g'ri to'rtburchaklarning hech qaysi sohasi ustma-ust tushmasligi kerak. Shu to'g'ri to'rtburchaklarning perimetrlari farqini toping.  
A) 10    B) 15    C) 20    D) 5
- 16** (7.4 ball) 0, 1, 2, 3, ..., 9 raqamlarning ba'zilar rostgo'y qolganlari esa yolg'onchi. Bir kuni har bir raqam bittadan quyidagi gaplarni aytdi:  
9 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 9 ta;  
8 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 8 ta;  
7 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 7 ta;  
...  
1 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar soni 1 ta;  
0 raqami: Oramizda mendan kichik yolg'onchilar yo'q.  
Raqamlardan nechitasi rostgo'y ekanligini aniqlang.
- 17** (7.4 ball) "Yosh iqtidor" bog'idagi charxpalak bir marta to'liq aylanishi uchun 4 daqiqa vaqt ketadi. Uning xonalari 1 dan boshlab ketma-ket natural sonlar bilan tartiblangan. Sardor va Rasulbek turli vaqtlarda charxpalakka chiqishdi. Bunda Sardor 12-xonaga Rasulbek esa 20-xonaga chiqqan. Bir qancha vaqtdan so'ng, Sardorning charxpalakda bir marta to'liq aylanib chiqishi uchun 11 sekund, Rasulbekning esa 43 sekund vaqti qolgan ekan. Charxpalakdagi xonalar sonini toping.
- 18** (7.4 ball) Quyida berilgan shaklda tomoni 4 cm va 8 cm bo'lgan ikki kvadrat o'zaro yonma-yon joylashtirilgan. Bo'yalgan shaklning yuzini toping( $cm^2$ )



## 3-sinf savollari

- 19 (7.4 ball) Turli  $T$ ,  $A$ ,  $S$  raqamlar uchun quyidagi tenglik o'rinli.

$$\overline{TA} + \overline{SS} + \overline{AT} = \overline{TAS}$$

$T + A - S$  ning qiymatini toping.

- 20 (7.4 ball) Quyidagi shakl bir nechta birlik kvadratlardan tashkil topgan. Ba'zi birlik kvadratlar sariq rangga bo'yalgan. Shunday to'g'ri to'rtburchaklar sonini toping, bunda uning sariq rangga bo'yalgan qismi bilan oq rangga bo'yalgan qismi teng bo'lsin.

